

## **Yodgorlik majmui**

2018 yil 28-fevral kuni TIQXMMI “Gidromelioratsiya” fakulteti Xotin-qizlar qo’mitasi boshlang’ich tashkiloti raisaci D. Madazizova SXM (KPT) 216 guruh qizlari bilan “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuiga tashrif uyushtirdi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida el-yurtimiz ozodligi yo’lida qurban bo’lganlarning pok nomlarini tiklash, ruhlarini shod, qadamjolarini obod etish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Sobiq mustabid tuzum davrida xalqimizning yuzlab asl farzandlari nom-nishonsiz ko’mib tashlangan Toshkent shahrining Bo’zsuv sohilidagi qarovsiz joy obod ziyoratgohga aylantirildi.

2000 yilda bu yerda “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmui bunyod etildi. Majmua tarkibida “Qatag’on qurbanlari xotirasi” muzeyi tashkil qilindi.



Tashrif chog’ida “Shahidlar xotirasi” xiyobonida xalqimizning ozodligi va mustaqilligi yo’lida qurban bo’lgan ajdodlarimizni yod etish maqsadida qur’on tilovat qilinib, qatag’on qurbanlari ruhiga hurmat bajo keltirildi.

Mana shunday muborak joylarda, xalqimiz ozodligi yo’lida jon fido qilgan ming-minglab vatandoshlarimizni eslar ekanmiz, bugungi tinch hayot, musaffo osmon, to’kinlik va farovonlikka qanday og’ir yo’qotishlar, sinov va mashaqqatlar evaziga erishganimiz xayoldan o’tadi. Ular bir umr orzu qilgan, bugungi avlodga nasib etgan mustaqillik, erkin va farovon hayotning ahamiyatini teranroq anglaymiz.

Qizlarning darsdan bo’sh vaqtлari maroqli va sermazmun o’tayotganlari ularga quvonch bag’ishladi.

**“Gidromelioratsiya” fakulteti Xotin-qizlar qo’mitasi boshlang’ich tashkiloti raisasi  
D.Madazizova axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**